



# O'zbekiston Respublikasi Qonuni

## Pedagogning maqomi to'g'risida

O'RQ-901, 01.02.2024-y.

## Pedagogning maqomi to'g'risida

Qonun bilan pedagoglarning huquqlari, majburiyatlari, faoliyatining asosiy kafolatlari, mehnatiga yarasha haq to'lash, rag'batlantirish va ijtimoiy himoya qilish tamoyillari belgilandi (O'RQ-901, 01.02.2024-y.).



# Qonunga ko'ra



Pedagogning **huquqlari**, **sha'ni**, **qadr-qimmati** va **ishchanlik obro'si** davlat himoyasi ostida bo'ladi

Umumiy o'rta ta'lim tashkilotida ilk bor kasbiy faoliyatini boshlayotgan shaxsga bir o'quv yili davriga murabbiylilikni amalga oshirish uchun tajribali pedagog biriktiriladi

## **Qonunga ko'ra, jumladan, quyidagilar taqiqlanadi:**



pedagogni kasbiy faoliyati bilan bog'liq bo'limgan ishlarga, shu jumladan hududlarni obodonlashtirishga va qishloq xo'jaligi ishlariga jalb qilish

pedagogdan uning kasbiy majburiyatlariga taalluqli bo'limgan hisobotlarni va boshqa ma'lumotlarni, shu jumladan bitiruvchilarning bandligi ta'minlanganligi haqidagi hisobotlarni shakllantirishini va taqdim etishini talab qilish

pedagogning zimmasiga tovar va xizmatlarni sotib olish majburiyatini yuklash, shu jumladan ish haqidan uning yozma rozilgisiz tovar va xizmatlar uchun mablag' ushlab qolish

# Pedagogning huquqlari

zamonaviy pedagogik texnologiyalarni,  
o'qitish va tarbiya vositalarini hamda usullarini  
erkin tanlash va ulardan foydalanish

belgilangan tartibda mualliflik  
dasturlarini va o'qitish uslubiyotini ishlab  
chiqish va joriy etish, ijodiy faoliyat ko'rsatish,  
shuningdek tegishli o'quv fanlari, kurslari va  
modullaridan foydalanish

kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun  
zarur shart-sharoitlar yaratilishini talab qilish



# E'tiboringiz uchun rahmat!

